**UDK: 14 (575)** **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a208**

# ABU NASR FOROBIY FALSAFASIDA AQLIY BILISH PANTEIZMI

# ПАНТЕИЗМ ПОЗНАНИЯ В ФИЛОСОФИИ АБУ НАСРА ФАРАБИ

# PANTHEISM OF KNOWLEDGE IN ABU NASR FARABI'S PHILOSOPHY

**Faxriddin Yuldashev[1]**

**[1]Faxriddin Yuldashev** – Farg'ona davlat universiteti **"**Musiqa ta'limi va madaniyat" kafedrasi dotsenti falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD

***Annotatsiya***

*Ilk Uyg'onish davrining qomusiy olimi, antik yunon falsafasini qaytadan jonlantirgan, yangi falsafiy nazariya va xulosalar bilan boyitgan, Sharq musulmon falsafasini yaratgan daho Abu Nasr Forobiydir. Forobiy qadimgi yunon madaniyati manbalarini Arastu, Aflotun, Ptolemey kabi faylasuflarning ijod mahsullari yordamida o'rgandi. Shuningdek, u ko'chmanchi qabilalardan So'g'd, Xuroson, Sosoniylar davlati, Kushon davlati xalqlarining madaniyatini o'rgandi. Mutafakkir o'z davrida mantiqan tugallangan yetuk falsafiy tafakkurni yaratdi. Uning negiziga inson va uning yaratuvchilik faoliyatini qo'ydi. Inson Alloh tomonidan yaratilgan barcha jonzotlarning gultojisi, sababi bo'lib, uning xatti-harakati boshqa mavjudotlarga ato etilmagan sifatda – aqlda deb ko'rsatdi. Mutafakkirning ilmiy, falsafiy va ma'naviy-axloqiy qarashlarining aqliy faoliyati masalasi insonning baxt-saodatga erishuvi nuqtai-nazari bilan bog'liq tarzda muhokama qilinadi. Abu Nasr Forobiy ta'limotida yoritilgan qarashlarni o'rganish, tahlil qilish va hayotga tatbiq etishning ahamiyati yangilanayotgan O'zbekiston jamiyatini barpo etishning asosiy maqsadi va barkamol shaxsni tarbiyalash jarayoni sifatida ilmiy asoslangan. Mazkur maqola aqliy bilishning Abu Nasr Forobiy falsafasida ifodalanishi haqida bayon qiladi. Biz unda faylasufning aql to'g'risidagi nazariy tahlillarining panteistik jihatlarini ko'rishimiz mumkin.*

***Аннотация***

*Ученый раннего Возрождения, гений Абу Наср Фараби, возродивший древнегреческую философию, обогативший ее новыми философскими теориями и умозаключениями, создавший Восточную мусульманскую философию. Фараби изучал истоки древнегреческой культуры с помощью творчества таких философов, как Аристотель, Платон, Птолемей. Он также изучал культуру народов Согда, Хорасана, государства Сасанидов, Кушанского государства у кочевых племен. Мыслитель создал единое и логически завершенное философское мышление. В его основу он положил человека и его творческую деятельность. Человек как причина всех созиданий, созданных Богом; Его поведение проявляется в разуме, присущему только человечеству. Вопрос познавательной деятельности научных, философских и духовно-нравственных взглядов мыслителя обсуждается в связи с точкой зрения достижения человеком счастья. Важность изучения, анализа и воплощения в жизнь взглядов, освещенных в учении Абу Наср Фараби, научно обоснована как основная цель построения обновляющегося общества Узбекистана и процесса воспитания гармоничной личности. В данной статье излагается сущность познания в философии Абу Насра Фараби. Мы можем увидеть в нем пантеистические аспекты идей философа в теоретическом анализе разума.*

***Abstract***

*The scientist of the early Renaissance, the genius Abu Nasr Farabi, revived ancient Greek philosophy, enriched it with new philosophical theories and conclusions, created Eastern Muslim philosophy. Farabi studied the origins of ancient Greek culture with the help of the works of such philosophers as Aristotle, Plato, Ptolemy. He also studied the culture of the peoples of Sogd, Khorasan, the Sassanid state, the Kushan state among nomadic tribes. The thinker created a unified and logically complete philosophical thinking. He based it on a person and his creative activity. Man as the cause of all creatures created by God, His behavior manifests itself in the mind inherent only in humanity. The question of cognitive activity of scientific, philosophical and spiritual-moral views of the thinker is discussed in connection with the point of view of achieving happiness by a person. The importance of studying, analyzing and implementing the views highlighted in the teachings of Abu Nasr Farabi is scientifically substantiated as the main goal of building a renewing society in Uzbekistan and the process of educating a harmonious personality. This article describes the expression of knowledge in the philosophy of Abu Nasr Farabi. We can see his pantheistic views in the theoretical analysis of reason.*

***Kalit so'zlar:*** *aqliy bilish, panteizm, aql darajalari, bilish nazariyasi, in'ikos, aqliy quvvat, amaliy aql, nazariy aql*

***Ключевые слова:*** *познание, пантеизм, уровни интеллекта, теория познания, восприятие, умственная сила, практический интеллект, теоретический интеллект*

***Key words:*** *cognition, pantheism, levels of intelligence, theory of cognition, perception, mental strength, practical intelligence, theoretical intelligence*

## KIRISH

Hozirgi davrga qadar Sharq va G‘arb falsafasi o‘ziga xos muloqot mahsuli sifatida namoyon bo‘lgan. X-XI asrlardagi arab tilidagi falsafaning shakllanishi bevosita qadimgi dunyo falsafasi, avvalo Arastu va Aflotun qarashlari ta’sirida yuz bergan. Shuning uchun ham falsafiy adabiyotlarda “Sharq peripatetizmi” istilohiga alohida e’tibor qaratiladi. Sharq peripatetizmi vakillari qatoriga Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Tufayl va Ibn Rushd kabi faylasuflarni kiritish mumkin. Aynan shu faylasuflarning yaratgan buyuk asarlari orqali o‘rta asrlardagi Yevropa falsafiy tafakkuri o‘zining rivojlanish davrini boshlagan. Bu tarixiy dalillardan kelib chiqqan holda Sharq va G‘arb falsafasining ildizlari bir ekan, deb xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Chunki Sharq va G‘arb falsafasi o‘zining tushunchalar olami, muammolarni tahlil qilishdagi tafakkur tarzi, ularni yechish usullarini topishdagi falsafiy tafakkurning bir butun jihati va xususiyati nuqtai nazaridan bir-birlaridan jiddiy farq qilgan. Bu esa ko‘pgina Sharq xususan Islom falsafasi vakillariga G‘arb falsafiy tafakkurini tanqidiy o‘rganishga imkon bergan.

Ijtimoiy-tarixiy davrga munosib tarzda, buyuk donishmand din va falsafa o‘rtasidagi munosabat muammosining yechimida Abu Nasr Forobiy aql masalasini bir butun falsafiy tizimning tamal toshi sifatida qo‘ydiki, natijada uning “Fusus-ul hikam” (Hikmat javhari) asarida bayon etilgan ratsionalistik ta’limotini ashaddiy muxoliflar ham e’tirof etishga majbur bo‘lganlar.

Forobiyning falsafasida bilish nazariyasi dialektik tarzda talqin etiladi, “nazariy aql”, “amaliy aql”, “voqeiy aql”, “faol aql” kabi bilish jarayonining bosqichlari o‘zaro bir-birini taqozo etgan holda yuksaklikka erishib boradi. Forobiy ta’limotiga ko‘ra, insondagi aql-zakovat (“aqliy quvvat”) borliqning turli-tuman ko‘rinishlarining in’ikosidir. Inson o‘zidagi o‘sha aql-zakovat yordamida avval yerda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarning, o‘zgarishlarning sabablarini, so‘ngra esa osmon jismlarining siru-asrorini biladi. Insonning odam va olam to‘g‘risidagi to‘plagan bilimlari, ya’ni aql vositasida yaratgan ma’naviy boyliklari hech qachon yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki “dunyoviylik”ni tashkil etadi. Inson aqli olam sirlarini bilishda eng yuksak cho‘qqiga ko‘tarilganda “kayhoniy aql”, “kayhoniy ruh” bilan qo‘shiladi, ya’ni ilohiylik kasb etadi. Buyuk dahoning fikricha, haqiqatga – muhokama va aql orqali boriladi, ammo bu maqsadga erishish uchun faqat aqlning o‘zi kifoya emas, buning uchun ichki olamni poklab borish kerak [3].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Forobiy aqlni ikki yo‘nalishda – har bir insonning tabiiy xislati sifatida mavjud bo‘lgan aqliy quvvat nuqtai nazaridan hamda umumiy insoniyatga xos bo‘lgan aqliy bilishning umumiy taraqqiyoti, rivoji nuqtai nazaridan tahlil qiladi. “Aqliy quvvatni insonning ajralmas xislati sifatida talqin etar ekan, Forobiy uni avvalo ikkiga, nazariy va amaliy aqlga ajratadi. Arastu, aqlning kamolotga erishmog‘i uchun tabiiy va ruhiy kuchlarning o‘zlari yetarlimi, degan masalani o‘rganadi va ular yetarli emas, deb javob qiladi. Xullas, inson eng oliy kamolotga erishuvi uchun unga (yana) inson tabiati va faoliyatiga qo‘shimcha ikkita: amaliy va nazariy fikriy quvvatlar zarurdir”, deb ta’kidlaydi [2].

Mutafakkir o‘z davridagi ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy vaziyatdan kelib chiqib, ilmiy ratsionalistik tafakkurni saqlab qolishga, ilmiy tushunchalarni diniy e’tiqod bilan muvofiqlashtirishga intildi. Shuni aytish zarurki, Forobiy falsafasida garchi aql Alloh yaratgan mahsul sifatida qaralsa-da, u Alloh bilan o‘zaro sababiy-oqibat munosabatida bo‘ladi. Demak, Alloh aqlni, o‘z erki, xohishi yoki talabi bilan, tasodifiy emas, balki qat’iy zaruriyat natijasida yaratgan. Ushbu xulosa hukmron islom ideologiyasi bilan sig‘isha olmas edi. Shu tufayli faylasuflar, ayniqsa islom falsafasining asoschisi al Forobiy bu o‘rinda juda nozik yo‘nalish va yondashuvni topa bildi. U zamondosh faylasuflar kabi falsafiy xulosalar va Qur’on o‘rtasida hech qanday ziddiyat bo‘lishi mumkin emas, deb hisobladi. Aql yordamida o‘rganish Qur’onda asoslab berilgan narsalarga zid xulosalarga olib kelmasligi kerak, deb yozadi [6].

Forobiy o‘zining “Davlat arbobining aforizmlari” risolasida “amaliy aql” vositasida inson nimani ustun hisoblasa va nimadan o‘zini chetga olishni istasa, ana shunga erishishi mumkin”, deb yozadi [4]. Amaliy aqliy quvvat bilimni egallashning yo‘l- yo‘riqlari, xohishi, qobiliyatlaridan biridir. Amaliy aqliy quvvat, o‘z navbatida, tayyorlovchi va muhokama yurituvchi quvvatlarga bo‘linadi. Amaliy aqlning xususiyati va vazifalarini sharhlashda Forobiyning panteistik qarashlari ifodalanadi. Amaliy aqliy quvvat ko‘proq inson hayot kechirayotgan muhit bilan bog‘liq bo‘ladi va voqelik kasb etadi. “Tabiatan inson o‘zi qanday zot, unda ruhdan nimalar mavjud. U (inson) ushbu sabablarning, agar ular modda tomonidan yoki qurol-vosita tomonidan tayyorlovchi

bo‘lsalar mavjudliklari shart-sharoitlarini ko‘rsatib o‘tadi, toki aqlning amaliy kuchlari nazariy aqlga erishishda ulardan imkoni boricha to‘la foydalana olsinlar”, deydi Forobiy [3].

Mutafakkirning amaliy aql to‘g‘risidagi qarashlari uning induksiya to‘g‘risidagi konsepsiyasi bilan bog‘lanib ketadi. Ma’lumki, Forobiy bilish jarayonida sezgilarning o‘rniga alohida e’tibor bergan, uni bilimlarning manbai, deb izohlagan. U Arastuning “2-Analitika» asariga yozgan sharhlarida “kimki sezgilar orqali idrok qilish qobiliyatiga ega bo‘lmasa, u bilimdan mahrumdir”, deydi [5]. Sezgilar yordamida amaliy aql moddiy mavjudlik haqida ma’lumot oladi, ulardan nazariy aql foydalanib, faol aql shakllanib boradi. Ko‘rinib turibdiki, mutafakkir amaliy aql haqida mulohaza yuritganda moddiy mavjudlikni amaliy aql vositasida bilish masalasiga e’tibor bergan. Forobiy amaliy aqlni nazariy aqlga tayyorlovchi quvvat sifatida ta’riflaydi. Tayyorlovchi quvvat yordamida inson san’at va hunarlarni egallaydi, muhokama yurituvchi quvvat yordamida nimani bajarish, amalga oshirish lozim va nimani bajarmaslik kerakligi ustida fikr yuritadi. Aqliy quvvatning bu turlari aqlning insondan ajralmas tabiiy xislati ekanligidan kelib chiqadi va bu tabiiy xislatni turli tomonlardan xarakterlab beradi. Forobiy talqinida aql birgina moddiy borliqni bilish bilan to‘xtab qoluvchi fenomen emas. U aqlni insoniyat bilimining uzluksiz rivojlanib borishi nuqtai nazaridan tahlil qilib uni moddiy bo‘lmagan va shaklga ega bo‘lmagan mavjudot sifatida ham talqin etadi. Ayni shu xulosalarda faylasufning panteistik yo‘nalishdagi fikrlari ifodalanadi. Forobiy amaliy va nazariy aqlni farqlab, nazariy aql insonning ratsional bilish qobiliyatini mavhumlashgan, umumlashgan holda o‘zida ifodalab, narsalarning mohiyatini bilish uchun chuqurlashib borishi jarayonida turli bosqichlarga erishadi, degan xulosaga keladi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Forobiyning aqliy bilish haqidagi qarashlari mohiyat va shakl to‘g‘risidagi ta’limotida mujassamlashgan. Ushbu ta’limotning mazmuni doirasida aql bosqichlari to‘g‘risidagi g‘oyalarni ishlab chiqqan. Forobiyning “aql-bil-quvvat – imkoniyatli aql” to‘g‘risidagi nazariyasida ham panteistik mazmundagi fikrlar yuzaga chiqadi. Narsalar, predmetlarni inson bilib olish imkoniyatiga ega, ularning mohiyatini tushunib yetish mumkin,- deb hisoblaydi faylasuf. Ana shu qobiliyat imkoniy, salohiyatli bilim quvvat aqlni tashkil etadi. Imkoniy aql bilishning birinchi bosqichi bo‘lib, voqeiy yoki faoliyatdagi aqlga yo‘l ochadi. Mutafakkir “Aql va fan haqida” nomli risolasida mavjud narsalar mohiyatini bilib olishni ta’minlovchi imkoniy aqlni voqelikka olib chiquvchi aql – voqeiy yoki faoliyatdagi aqldir, deb ta’riflaydi [7].

Forobiy Arastuning “Ruh to‘g‘risida” nomli asaridagi aqlning turlari haqidagi nazariyasiga asoslanib, ularning falsafiy-epistemologik mohiyatini tahlil qiladi. Forobiy ustozining aql turlari to‘g‘risidagi qarashlarini qabul qilgan holda, ularni bosqichma-bosqich biridan-biriga o‘tib borishi jarayonida aql turlarining bilish darajasi va mohiyatining tobora yuqorilab, chuqurlashib va mavhumlashib umumlashib borishini tushuntirib beradi. Aql rivojining bosqichlarini ta’riflaganda Forobiy falsafaning imkoniyat va voqelik qirralariga asoslanadi hamda ularning o‘zaro munosabatidan kelib chiqadi.

Forobiyning faol aql (ta’sir etuvchi sabab) to‘g‘risidagi qarashlarida aql va moddiy narsalar o‘rtasidagi aloqadorlikni o‘ziga xos tarzda tahlil etganligi namoyon bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, shu yerda ham mutafakkirning panteistik falsafasi ko‘rinadi. Mutafakkir faol aqlning bosqichma-bosqich iyerarxik rivojlanishini sharhlar ekan, unda ta’sir etuvchi sabab (fe’l)ning ahamiyatini ta’kidlaydi. “Ba’zan Arastu, avvallari o‘ziga tushunarsiz bo‘lgan masalalarga yoki inkor etgan ko‘p narsalarga qaytadi,-deydi Forobiy. So‘ngra u faol aqlni tahlil qiladi. Bu aql tabiat va ruh, tabiiy va ruhiy mohiyatlar sababimi- yo‘qmi, degan savolga javob izlaydi. Natijada u, unsurlar boshqa narsalarning harakatiga (harakatlanishiga) moyil etuvchi asoslardir, degan fikrni ma’qul topadi. Ushbu fikrdan kelib chiqadiki, inson yerdagi narsalarning mohiyatini, moddiy asosini bilib olgan aql (imkoniy, voqeiy, foydalanuvchi) endi osmon jismlarini, ularning shakllarini bilishga tomon chuqurlashib boradi. O‘zining so‘nggi (barkamollik) bosqichida aql faol aqlga aylanadi, bir butun hamma narsalarga, insonga o‘z ta’sirini o‘tkazib, dunyoviy, samoviy aql bilan qo‘shilib ketadi va abadiylikka aylanadi, mangulik xislatiga ega bo‘ladi”. Bu uzoq jarayonning hammasi aqlning imkoniy shakldan voqelikka aylanishi samoviy faol aqlning bevosita ta’sirida vujudga keladi.

Shunday qilib oxirgi, eng yuqori aql – bu samoviy aql bo‘lib, u samoviy harakatlarda ishtirok etmaydi, chunki kelib chiqishi yer olamiga taalluqli bo‘ladi. Uning (faol

aqlning) nomoddiy mohiyati doimiy ta’sir qilib imkoniy aqlni faollashtiradi, buning natijasida uning voqelikdagi aqlga aylanishiga sharoit yaratadi, imkoniy aqlda qo‘lga kiritilgan, ya’ni foydalanilgan aqlni voqeiy aql mohiyatiga aylantiradi. Mutafakkir samoviy faol aqlning imkoniy aqlga munosabatini quyosh nurlarining ko‘zga nisbatan munosabatiga taqqoslaydi. Ko‘z qorong‘ulikda ko‘rish xislatiga yoki ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Qorong‘ulik bu imkoniyatdagi yorug‘lik ayni bir vaqtda, ko‘rinmas voqelikdir. Yorug’lik – qarama-qarshi joylashtirilgan nur manbaidan yoritilishdir. Qachonki nur ko‘zda, havoda yoki qandaydir narsada aks etganda, ko‘z yoritish imkoniga ega bo‘lganda u faol voqeiy ko‘rishga aylanadi. Quyosh nuri atrofdagi barcha predmet, narsalarni yoritsa, shundagina biz ularni ko‘ra boshlaymiz. Mutloq qorong‘ulikda ko‘zimiz hech narsani ko‘ra olmaydi, nur yordamida esa bunday imkoniyatga ega bo‘ladi. Bu jarayonda faol aql hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi, ya’ni faol aql imkoniy aqlni faol voqeiy aqlga aylantirishga yordam beradi. Bu yerda ham Forobiyning materialistik va idealistik qarashlari yagona birlikda uyg‘unlashib ketgan. Uning ta’limotiga ko‘ra, individual aql dunyoviy aql yordamida narsa-hodisalarning mohiyatini bilib borishda asta-sekin u bilan qo‘shilib mangu (samoviy) aql bo‘lib qoladi. Bu - mavjudotlarning eng birinchi asoslari haqidagi Forobiyning falsafiy ta’limotidagi fikrlariga mos keladi.

Mutafakkirning faol aql to‘g‘risidagi qarashlari, uning butun falsafiy tizimi bilan uzviy bog’lanib ketadi. Yuqorida imkoniyatdagi aql (bil quvvat); voqeiy aql (aktual); qo‘lga kiritilgan yoki foydalanilgan aql (al-mustafid) kabi shakllarini ko‘rib chiqdik. Ular asosan moddiy asosga ega bo‘lgan va asta-sekin o‘z mohiyatiga ega bo‘lib boradigan aql rivojining bosqichlari tarzida talqin qilingan. Ular harakatidagi faol aqlning vujudga kelishida asosiy tayanch bo‘ladi, narsa-hodisalarning mohiyatini anglash davomida aqlga aylanadi. Aql mohiyatini Forobiy quyidagicha tushuntiradi: aqlning faoliyati aqlli jonivor (inson) haqida g‘amxo‘rlik qilish va uni inson erishuvi mumkin bo‘lgan so‘nggi oliy darajadagi baxt-saodatga olib chiqishga intilishdir. Bu, inson faol aql darajasiga ko‘tarildi, demakdir. Bu ko‘tarilish inson tanadan ajralganda, u (bilishning) pastki darajasida turuvchi materiya va aksidensiyaga muhtoj bo‘lmaganda yuzaga keladi va bu darajada mangu qoladi. Faol aql fazoviy jismlarga harakat baxsh etadi va ushbu fazoviy jismlar yordamida tabiat va ruhiyatni harakatga keltiradi. Ko‘p ruhiy mohiyatlar o‘zlariga munosib moddalarga erishadilar, bu moddalar esa aqlni qayta yaratish uchun ularda mavjud bo‘lgan tabiatni tayyorlaydilar, bu ham xuddi odam o‘zidan oldingi odamday, unisi esa oldingisidan tug‘ilganga o‘xshaydi [1, 106-bet].

Forobiyning faol aql to‘g‘risidagi ta’limoti Ibn Sino, Ibn Rushd va boshqa mutafakkirlar tomonidan zo‘r qoniqish va qiziqish bilan qabul qilingan. Faol aql nazariyasi dastavval boshdan-oxirigacha butun-mazmuni bilan diniy-mistik hech qanday ratsional ma’noga ega bo‘lmagandek ko‘rinadi. Lekin aslida bu juda buyuk kashfiyot – Sharq Arastuchilari peripatetiklarining katta g‘alabasidir.

## XULOSA

Inson o‘zining aqliy xatti-harakati bilan ulkan moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratdi, ularni zamonlarning og‘ir, mashaqqatli, ayni bir vaqtda sharafli sinovlaridan eson-omon olib o‘tdi. Buyuk donishmand Abu Nasr Forobiy inson aqli-zakovatini birinchi o‘ringa qo‘yganligi bejiz emasligi tarix falsafasi ko‘zgusida yaqqol ko‘rinadi. Zero, jahon tarixi insoniyatning tabiat bilan uyg’un holda yashab qolish, moddiy va madaniy boyliklarni ong-aql vositasida yaratish tarixidan iborat. Falsafiy ta’limot tizimida bilish nazariyasi, ya’ni ontologik maqomining o‘rni va ahamiyatiga e’tibor berish zarurligini Abu Nasr Forobiy inson mohiyatini aynan aql mezoni bilan belgilagan. Inson mohiyati aqlda, aqlning mohiyati xatti-harakatda bilinadi, deydi Forobiy. Aql tushunchasi insonning tub mohiyatini, qadriyatini, xotirasini, bir so‘z bilan insoniyligini bildiruvchi asosiy mezon sifatida talqin etiladi. Insonning insonligi uning aql-idrok, aqliy mushohada, tafakkur asosida faoliyat ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi. Forobiyning fikricha, aqlning darajasi, aql-idrokning miqyosi, tafakkurning ko‘lami inson xatti-harakati orqali ko‘zga tashlanadi. Insonning eng oliyjanob xususiyati ham ana shunda. Chunki odamzot o‘z hayotiy faoliyatini aqliy imkoniyati doirasida, bilimi, tushunchasi va ma’naviy-ruhiy mezonlari chegarasida quradi.

Abu Nasr Forobiy bilish nazariyasini o‘rganish asrlar osha Sharq va G’arb olamida falsafiy tafakkur rivojlanishidagi ilmiy metodologik ahamiyatini ochib berish va bu borada mavjud bo‘lgan yutuq hamda qiyinchiliklarni ko‘rsatish, ularni hal etish yo‘llarini tadqiq etish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, Abu Nasr Forobiyning asarlarida asoslab berilgan aqlning olamni bilish to‘g‘risidagi nazariyasini falsafiy o‘rganish va talqin qilish tarixiy merosimizning olamshumul ahamiyatini yanada kengroq yoritish va ma’naviy-tarbiyaviy mohiyatini yanada chuqurlashtirish imkoniyatini yaratadi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. (Abu Nasr Farabi. City of noble people. T. People’s heritage publishing house named after Abdullah Kadiri, 1993)

2. Юлдашев Ф.Ю. Концепция познания аль-Фараби в истории философии. «Философия инноваций и социология будущего в пространстве культуры: научный диалог». Сборник статей Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. Уфа, 2020 год. Стр. 389-393 (Yuldashev F.Y. The concept of cognition of al-Farabi in the history of philosophy. “Philosophy of innovation and sociology of the future in the space of culture: scientific dialogue”. Collection of articles of Russian scientific and practical conference with international participation. Ufa, 2020. pp. 389-393)

3. Yuldashev, F. A. Abu Nasr Forobiyning aql va bilim evolyusiyasi haqidagi qarashlari: falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi: 09.00.03 - falsafa tarixi / F. A. Yuldashev; Samarqand Davlat universiteti. - Samarqand, 2018. - 134 bet (Yuldashev, F. A. Abu Nasr Farabi’s views on the evolution of reason and knowledge: PhD dissertation: 09.00.03 - history of philosophy / F. A. Yuldashev; Samarkand State University. - Samarkand, 2018. - Page 134)

4. Yuldashev F. A. Forobiy qarashlarida baxt-saodat tushunchasining ifodalanishi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10-2. – С. 528-533. (Yuldashev F. A. Expression of the concept of happiness in Farabi’s views //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. - Т. 2. – №. 10-2. - S. 528-533.)

5. Юлдашев Ф. А., Юлдашева М. Б. Формирование полноценно развитой личности на основе учений аль-Фараби //Психологическое благополучие современного человека. – 2019. – С. 71-74. (Yuldashev F. A., Yuldasheva M. B. Formation of a fully developed personality based on the teachings of al-Farabi //Psychological well-being of modern man. – 2019. – pp. 71-74.)

6. Юлдашев Ф. А. Теория познания аль-Фараби как фактор формирования национального человеческого капитала //Человеческий капитал как фактор социальной безопасности. – 2022. – С. 327-330. (Yuldashev F. A. Theory of knowledge of al-Farabi as a factor in the formation of national human capital //Human capital as a factor of social security. – 2022. – pp. 327-330.)

7. Юлдашев Ф. А., Юлдашева М. Б. Гносеологические аспекты концепции познания аль-Фараби в формировании ответственности личности //Социальная, профессиональная и персональная ответственность личности в современном обществе. – 2020. – С. 63-67 (Yuldashev F. A., Yuldasheva M. B. Epistemological aspects of the concept of cognition of al-Farabi in the formation of personal responsibility //Social, professional and personal responsibility of the individual in modern society. – 2020. – pp. 63-67)